

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.08.06 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AHADOV ABDULLO AMRULLOJON O'G'LI

**KAZIMIR-KEMPF MODELIDAN FOYDALANILGANDAGI KUPRATLI
YUQORI HARORATLI O'TA O'TKAZGICHLAR PARAMETRLARINING
BOSIM TA'SIRIDAGI O'ZGARISHLARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
physical and mathematical sciences**

Ahadov Abdullo Amrullojon o'g'li

Kazimir-Kempf modelidan foydalanilgandagi kupratli yuqori haroratli o'ta
o'tkazgichlar parametrlarining bosim ta'siridagi o'zgarishlari3

Ахадов Абдулло Амрулложон угли

Изменение параметров высокотемпературных купратных сверхпроводников
под действием давления при использовании модели Казимира-Кемпфа.....21

Ahadov Abdullo Amrullojon ogli

Pressure-induced variation of the parameters of high-temperature cuprate
superconductors within the Casimir–Kempf model43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.08.06 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AHADOV ABDULLO AMRULLOJON O'G'LI

**KAZIMIR-KEMPF MODELIDAN FOYDALANILGANDAGI KUPRATLI
YUQORI HARORATLI O'TA O'TKAZGICHLAR PARAMETRLARINING
BOSIM TA'SIRIDAGI O'ZGARISHLARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.4.PhD/FM1419 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro Davlat Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Djurayev Davron Rahmonovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yavidov Bahram Yangibaevich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent Sharopov Utkirjon Bahodirovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro Davlat Universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.FM.08.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 7-iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel. (+99865) 221-30-46; факс (+99865) 221-29-06; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro Davlat Universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (934 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel. (+99865) 221-30-46).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "25" iyun kuni tarqatildi.
(2026-yil "25" iyun dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)



M.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f-m.f.d. (DSc), professor

A.A. Turayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f-m.f.d. (PhD), professor

Sh.A. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
f-m.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik (YuHO'O') hodisasining fizik mohiyatini chuqur anglash, uning yuzaga kelish mexanizmlarini aniqlash hamda yuqori samaradorlikka ega yangi materiallarni yaratish orqali energiya yo'qotishlarini kamaytirish va energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan materiallar va simlar bozori 2024-yilda 1,23 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2030-yilga borib 2,07 mlrd AQSH dollariga yetishi hamda yiliga o'rtacha 9,1% o'sishi prognoz qilinmoqda¹, bu esa O'zbekistonda 2030-yilgacha sanoatda energiya samaradorligini kamida 20% ga oshirish, YAIM birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini 30% ga kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini 30-40% gacha yetkazishga qaratilgan qarorlar doirasida YuHO'O' hodisasini energiya tejamkor texnologiyalar uchun dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi².

Jahonda kupratli o'ta o'tkazgichlarning kristall tuzilishi, elektron holatlari, magnit xossalari, kritik harorati va tok zichligi kabi asosiy fizik parametrlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda istiqbolli nazariy yondashuvlardan biri Kazimir-Kempff modeli bo'lib, u kupratli o'ta o'tkazgichlarda nanoo'lchamli mis-oksidi qatlamlari orasida yuzaga keladigan vakuum fluktuatsiyalari natijasida hosil bo'luvchi Kazimir energiyasining o'ta o'tkazuvchanlik kondensatsiya energiyasi bilan taqqoslanadigan darajada bo'lishi mumkinligiga asoslanadi. Mazkur model kupratlarda o'ta o'tkazuvchanlik holatining shakllanish mexanizmini tushuntirishda muhim nazariy asoslardan biri sifatida qaraladi. Hozirgi kunga qadar barcha kupratli o'ta o'tkazgichlarda kuzatiladigan o'ta o'tkazuvchanlik xossalari yagona mexanizm asosida to'liq tushuntirib bera oladigan mukammal nazariyaning mavjud emasligi ushbu yo'nalishda bir qator fundamental ilmiy muammolar hanuzgacha o'z yechimini topmaganligini ko'rsatadi. Shu sababli mavjud nazariy yondashuvlarni, jumladan Kazimir-Kempff modelini ham chuqur tahlil qilish, ularni takomillashtirish hamda yangi ilmiy g'oyalar asosida tadqiqotlar olib borish kupratli o'ta o'tkazgichlar fizikasining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda energiya tejamkor qurilmalardan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularni amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida "... sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash..."³ bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda kupratli yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarda tashqi bosim ta'sirida kristall panjara parametrlari, mis oksidi qatlamlari orasidagi masofa,

¹<https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/superconducting-wire-market-report>

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

zaryad tashuvchilarning o'zaro ta'sir mexanizmlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarning kritik harorat, kondensatsiya energiyasi, zaryad zichligi va boshqa muhim o'ta o'tkazuvchanlik parametrlariga ta'sirini Kazimir-Kempff modeli asosida tadqiq etish hamda bosim, qatlamlararo masofa, Kazimir energiyasi va o'ta o'tkazuvchanlik parametrlarining o'zaro bog'liqliklarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-fevraldagi PQ-2772-sonli "2017-2021-yillarda elektrotexnika sanoati boshqaruvini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy tadqiqotlar usullarini qo'llagan holda kupratlardagi kuchli korrelyatsiyalar, qatlamli kristall tuzilma, spin va fonon dinamikasi hamda bosim ostidagi o'zgarishlarni o'rganish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan: C.W. Chu (AQSh), J.S. Schilling (Germaniya), L. Gao (Xitoy), H.K. Mao (AQSh), J.L. Tallon (Yangi Zelandiya), V.Z. Kresin (AQSh), C. Meingast (Germaniya), N. Barišić (Xorvatiya), R. Khasanov (Shveytsariya), A. Yamamoto (Yaponiya), H. Sakakibara (Yaponiya), J.B. Zhang (Xitoy), J. Zhao (Xitoy), W. Yang (Xitoy), M. Mito (Yaponiya), H.-H. Kim (Janubiy Koreya), S.G. Ovchinnikov (Rossiya), K.A. Sidorov (Rossiya), S. Tsankov (Bolgariya) va boshqalar.

Kupratli o'ta o'tkazgichlarning turli fizik xossalarini o'rganish va ularning nazariy asoslarini takomillashtirishda O'zbekistonning taniqli olimlari S. Djumanov, D.R. Djurayev, B.Y. Yavidov hamda E.M. Ibragimova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etib, mazkur izlanishlar natijasida yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikning fizik xossalarini tadqiq etish yo'nalishida salmoqli ilmiy natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, bosim ostida kupratlardagi o'ta o'tkazuvchanlik xossalarini tushuntirishda kuchsiz va kuchli elektron-fonon ta'sirlashuvi, Ginzburg–Landau yondashuvi, rezonansli valent bog'lanishlar modeli, spin-fluktuatsiyalar nazariyasi hamda Hubbard modeli kabi qator nazariy yondashuvlardan foydalanilmoqda. Biroq ushbu modellarda gidrostatik va bir o'qli bosim ostida o'ta o'tkazuvchanlik hamda uni tavsiflovchi fizik kattaliklarning miqdoriy o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqliklar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmi-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni ijrosini ta'minlash doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarda bosim ta'sirida o'zgaradigan asosiy o'ta o'tkazuvchanlik parametrlari, ya'ni kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi, effektiv massasi va magnit maydonining London singish chuqurligi orasidagi bog'lanishlarni Kazimir-Kempff modeli asosida nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Kazimir energiyasi va Kempffning minimal uzunlik modeli asosida yuqori haroratli kuprat o'ta o'tkazgichlarda kritik haroratning bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini ifodalovchi tenglamalarni keltirib chiqarish va bir o'qli bosimning anizotrop ta'sirini tavsiflovchi nazariy model ishlab chiqish;

Kazimir-Kempff modeli asosida yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlar zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim bo'yicha hosilalari tenglamalarini keltirib chiqarish va kristall panjaraning turli yo'nalishlari bo'yicha beriladigan bosim effektiv massaga anizotrop ta'sirini nazariy asoslash;

Hg-12(n-1)n kupratlar zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim bo'yicha hosilaviy qiymatlarini hisoblash, kristall panjarasining a (c)-o'qi bo'yicha yo'nalgan bosim ta'sirida effektiv massa o'zgarishi va bir o'qli bosim ostida kritik haroratning anizotrop o'zgarishi orasidagi bog'liqlikni Kazimir-Kempff modeli asosida tushuntirish;

Hg-12(n-1)n va Y-123 kupratlar kritik haroratning bir o'qli va gidrostatik bosim ostida o'zgarishini Kazimir-Kempff modeli asosida hisoblash, bosim ostidagi o'ta o'tkazuvchanlik parametrlarining bir-biriga miqdoriy bog'liqligini aniqlash;

magnit maydon singishining London chuqurligi, zaryad tashuvchilar zichligi va effektiv massasi o'zgarishlarining gidrostatik bosim ostidagi bog'liqliklarini Kazimir-Kempff yondashuvi asosida aniqlash va London singish chuqurligi va effektiv massaning kritik haroratga ta'sirini nazariy asoslash;

tashqi bosim berilganda Y-124 o'ta o'tkazgichdagi kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi, effektiv massa va London singish chuqurligi kabi parametrlarning o'zgarishini Kazimir-Kempff modeli asosida hisoblash, ideal va noideal Kazimir effektlarining kritik haroratga ta'sirlarini taqqoslash.

Tadqiqotning ob'yektini CuO₂ qatlamlar, Hg-12(n-1)n, Y-123, Y-124, gidrostatik va bir o'qli bosim ostidagi o'ta o'tkazgichlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Kazimir-Kempff modeli asosida yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarda kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi, ularning effektiv massasi hamda magnit maydonining London singish chuqurligi kabi asosiy o'ta o'tkazuvchanlik parametrlarining tashqi gidrostatik va bir o'qli bosimga bog'liq holda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida Kazimir-Kempff modeli, o'ta o'tkazuvchanlikning Kazimir energiyasi yondashuvi, differensiallash va hisoblashning sonli usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marta Kazimir effektini hisobga olgan holda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlar uchun kritik haroratning bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini

hisoblash tenglamalari olingan va ular orqali kritik haroratga bir o'qli bosim anizotrop ta'sirini tavsiflovchi nazariy model ishlab chiqilgan;

birinchi marta Kazimir-Kempff modeli asosida kupratli yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar effektiv massasiga bir o'qli bosim ta'sirini ifodalovchi nazariy tenglamalar keltirib chiqarilgan va ushbu tenglamalar orqali kristall panjaraning turli yo'nalishlari bo'yicha beriladigan bosim effektiv massa anizotrop ta'sir ko'rsatishi nazariy asoslangan;

birinchi marta Hg-12(n-1)n o'ta o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim bo'yicha hosilaviy qiymatlari hisoblanib, effektiv massa kristall panjaraning $a(c)$ -o'qi bo'yicha yo'nalgan bosim ta'sirida kamayishi (ortishi), tajribalarda kuzatilgan kritik haroratning bir o'qli bosim ostidagi anizotrop o'zgarishi Kazimir-Kempff modeli asosida tushuntirilgan;

Hg-12(n-1)n va Y-123 o'ta o'tkazgichlar kritik haroratining bir o'qli hamda gidrostatik bosim bo'yicha hosilaviy qiymatlari hisoblangan va bosim ostida zaryad tashuvchilar zichligi, ularning effektiv massasi, kristall panjara parametrlari va kritik harorat o'zgarishlari orasidagi bog'liqlik aniqlangan;

gidrostatik bosim ostida o'ta o'tkazuvchanlik kritik harorati, zaryad tashuvchilar effektiv massasi va magnit maydonining London singish chuqurligi orasidagi o'zaro bog'liqlik Kazimir-Kempff yondashuvi asosida aniqlanib, bosim ta'sirida London singish chuqurligi va effektiv massaning kamayishi kritik haroratning oshishiga olib kelishi nazariy asoslangan;

Y-124 o'ta o'tkazgichda kritik harorat, London singish chuqurligi va zaryad tashuvchilar effektiv massasining gidrostatik bosim ostidagi o'zgarishlari orasidagi bog'liqlik Kazimir-Kempff modeli asosida hisoblangan. Xususan, kritik haroratning gidrostatik bosim bo'yicha hosilaviy qiymati mis oksid qatlamlar orasida ideal Kazimir effekti ta'sirida noideal Kazimir effektiga qaraganda 4 marta katta bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kazimir-Kempff modeli asosida gidrostatik hamda bir o'qli bosim sharoitida kupratli o'ta o'tkazgichlarda kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi, effektiv massa va panjara parametrlarining o'zgarishlari orasidagi o'zaro bog'liqliklarni ifodalovchi tenglamalar taklif qilindi hamda ushbu tenglamalar yordamida bosimning o'ta o'tkazuvchanlik parametrlariga ko'rsatadigan anizotrop ta'sirini miqdoriy baholash imkoniyati asoslab berilgan;

Kazimir-Kempff yondashuvi asosida yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda kritik haroratning bir o'qli bosim ta'siridagi o'zgarishini ifodalash va uning bosim bo'yicha hosilalari qiymatlarini aniqlashga mo'ljallangan yangi hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

Hg-12(n-1)n, Y-123 va Y-124 kupratlar uchun bir o'qli va gidrostatik bosim ostidagi o'ta o'tkazuvchanlik xossalarini mis oksid qatlamlari orasidagi Kazimir effektini hisobga olgan holda tushuntirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kondensirlangan holat fizikasining sinovdan o'tgan zamonaviy usullaridan foydalanish, jumladan o'ta o'tkazuvchanlik kondensatsiyasi energiyasi, Kazimir energiyasining Bordag modeli, Kempffning minimal uzunlik tenglamasi va magnit maydonining London singish chuqurligi tenglamasining Kazimir-Kempff yondashuvida o'zaro bog'lanishi va muvofiqligi, hisobiy va tajribaviy natijalarning o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bosim ostidagi yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlar kritik haroratining o'zgarishini mis oksid qatlamlari orasidagi Kazimir ta'sirlashuv energiyasi o'zgarishi va Kempf tenglamasining bosim bo'yicha hosilalari asosida tushuntirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bosim ostidagi yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlar parametrlarining o'zgarishlarini aniqlash, eksperimental natijalarni tahlil qilish va o'ta o'tkazuvchan materiallarning strukturaviy parametrlarini optimallashtirish bo'yicha hisoblashlar usuli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kupratlarning bosim ostidagi o'ta o'tkazuvchanlik parametrlari orasidagi bog'liqliklarni Kazimir-Kempf modeli asosida tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Y-123 o'ta o'tkazgich kritik haroratining bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini hisoblash natijalari zaryad tashuvchilar effektiv massasining kovaklar konsentratsiyasiga bog'liqligini bipolaron modeli asosidagi hisoblashlar bilan taqqoslashda (Physica B: Condensed Matter 727, 418383, 2026) hamda zol-gel usulida sintez qilingan, noyob yer elementlari bilan legirlangan magniy va bariy alyuminat namunalarda kristall struktura, elektron tuzilish va energiyaga bog'liq parametrlar orasidagi o'zaro munosabatlarni tushuntirishda qo'llanilgan (The European Physical Journal B 99, 11, 2026);

o'ta o'tkazuvchanlikning Kazimir-Kempf modeli negizida ishlab chiqilgan zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan tenglamalar va ular asosida $Hg-12(n-1)n$ o'ta o'tkazgichlar zaryad tashuvchilar effektiv massasi bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarining hisoblangan qiymatlari kabi ilmiy yangiliklar Andijon davlat texnika institutida bajarilishi 2022-2023 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi doirasida «Katta ma'lumotlarga asoslangan intellektual (AI) qayta tiklanadigan energiya tarmoq tizimini tadqiq etish va qo'llash» mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot dasturining ilmiy natijalarini taqqoslashda foydalanilgan. (Andijon davlat texnika institutining 2026-yil 4-fevraldagi № 01-03-475 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalardan foydalanish avtomatlashgan sezuvchanlik texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar va integratsiyalashgan energiya ta'minoti tizimlarining avtomatlashgan sezuvchanlik sensori va katta ma'lumotlarni birlashtirishga asoslangan muvofiqlashtirishni boshqarish texnologiyasi tadqiq etish imkonini bergan;

Y-asosli kupratlarning o'ta o'tkazuvchanlik parametrlariga bosim ta'siri bo'yicha hisoblangan natijalar Rossiya Fanlar Akademiyasi V.A. Kotelnikov nomidagi radiotexnika va elektronika instituti bajarilishi 2025-2026-yillarda mo'ljallangan «Научно-технические принципы создания экологических сверхскоростных магнитолевитационных транспортных магистралей на основе высокотемпературных сверхпроводников» mavzusidagi ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasi V.A. Kotelnikov nomidagi radiotexnika va elektronika institutining 2026-yil 4-martdagi № 11220-8447-651 son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish tashqi bosim ta'sirida kupratlarning o'ta o'tkazuvchanlik parametrlari o'zgarishlarini miqdoriy tahlil qilish va hisoblash natijalarini eksperimental ma'lumotlar bilan solishtirish imkonini

bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 5 ta xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalari e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta maqolalar, jumladan 6 ta Scopus va Web of Science bazalaridagi jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, e'lon qilingan ishlar ro'yxati, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 125 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik va Kazimir effektining fundamental asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kupratli yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarda o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi hamda Kazimir effektining nazariy-fundamental asoslariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Mazkur bobda, xususan, kupratli o'ta o'tkazgichlarning kristall tuzilishida muhim rol o'ynaydigan mis-oksidi qatlamlari orasida yuzaga keluvchi vakuum fluktuatsiyalari natijasida hosil bo'ladigan Kazimir energiyasining o'ta o'tkazuvchanlik kondensatsiya energiyasi bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, Kazimir energiyasining kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi, effektiv massa hamda boshqa o'ta o'tkazuvchan parametrlarning shakllanishiga ta'sirini baholash masalalari ushbu bobning asosiy ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida bayon etilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Kazimir-Kempfi modeli kupratli yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarda bir o'qli bosim ta'sirida kritik haroratning o'zgarishini hisoblash hamda ushbu jarayonning fizik mexanizmlarini tushuntirish imkonini beradi. Ushbu model doirasida bir o'qli bosim kristall panjara parametrlarining deformatsiyalanishiga, zaryad tashuvchilar zichligi va effektiv massasining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada kupratli o'ta o'tkazgichlarda kritik haroratning turli kristallografik yo'nalishlar bo'yicha anizotrop o'zgarishi yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlik uchun Kazimir-Kempfi modeli. Kazimir-Kempfi modelida bosim ostidagi o'ta o'tkazuvchanlik”** deb nomlangan ikkinchi bobida yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarning fizik xossalari izohlashda Kazimir-Kempfi nazariyasining qo'llanish imkoniyatlari bayon etilgan. Bobda gidrostatik hamda bir o'qli bosim ta'sirida kupratli o'ta o'tkazgichlarda kritik haroratning o'zgarishi, zaryad tashuvchilar zichligi va effektiv massaning bosimga bog'liqligi, shuningdek, kristall panjara parametrlaridagi

deformatsion o'zgarishlarning o'ta o'tkazuvchanlik holatiga ta'siri nazariy jihatdan asoslangan.

Ma'lumki, Kazimir effekti parallel joylashgan metall plastinkalar orasida elektromagnit maydon kvant holatlari spektrining chegaraviy shartlar ta'sirida o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Plastinkalar maydon uchun chegaraviy shartlarni belgilashi natijasida vakuum tebranishlarining spektri o'zgaradi. Buning oqibatida plastinkalar orasidagi va tashqarisidagi energiya zichliklari o'rtasida farq paydo bo'ladi. Ushbu farq Kazimir energiyasi deb yuritiladi va u Kazimir kuchining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlar parallel CuO_2 qatlamlardan tuzilganligi ular uchun Kazimir effekti va o'ta o'tkazuvchanlik holatlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish imkonini beradi. Bu uchun Kazimir energiyasi bilan o'ta o'tkazuvchanlikning kondensatsiya energiyasini tenglashtirish orqali Kempf tenglamasi deb nomlanuvchi quyidagi o'ta o'tkazuvchanlik kritik harorat ifodasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$T_c = \frac{2^{1/4} \pi^{1/2} \hbar^{3/2} e^{1/2} n^{*1/4}}{10 \eta k_B m_{eff}^{*3/4} \epsilon_0^{1/4} c^{5/4}} \quad (1)$$

bu yerda, n^* va m_{eff}^* mos ravishda $n\text{CuO}_2$ tekislikdagi o'ta tok tashuvchilar zichligi va effektiv massasi, e - elektronning zaryadi, c - $n\text{CuO}_2$ tekisliklar orasidagi masofasi yoki unga deyarli teng bo'lgan kristall panjaraning vertikal doimiysi bo'lsa, $\hbar$ - Plank doimiysi, k_B - Bolsman doimiysi, ϵ_0 - vakuumning dielektrik sindiruvchanligi va $\eta = 1.76$ - BKSh parametrini bildiradi.

Agar tok tashuvchilar effektiv massasining elektronning tinchlikdagi massasi m_e ga nisbatini α bilan belgilasak, ya'ni $m_{eff}^* = \alpha m_e$ deb olsak (1) tenglamani quyidagicha qayta yozishimiz mumkin:

$$T_c = \frac{2^{1/4} \pi^{1/2} \hbar^{3/2} e^{1/2} n^{*1/4}}{10 \eta k_B \alpha^{3/4} m_e^{3/4} \epsilon_0^{1/4} c^{5/4}} \quad (2)$$

Gidrostatik bosim P ning kritik haroratga ta'sirini ifodalash (2) tenglamadan quyidagicha hosila olamiz:

$$\frac{dT_c}{dP} = \frac{\partial T_c}{\partial c} \frac{\partial c}{\partial P} + \frac{\partial T_c}{\partial \alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P} + \frac{\partial T_c}{\partial n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P} = -\frac{5T_c}{4} \frac{1}{c} \frac{\partial c}{\partial P} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P} \quad (3)$$

(3) tenglamani kristallografik c-o'q bo'yicha siqiluvchanlikni koeffitsiyenti

$$K_c = -\frac{1}{c} \frac{\partial c}{\partial P} = -\frac{1}{c} \frac{\partial c}{\partial P_c} \quad (4)$$

orqali quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\frac{dT_c}{dP} = -\frac{5K_c T_c}{4} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P} \quad (5)$$

Ma'lumki, kritik haroratning gidrostatik bosim bo'yicha hosilasiga bir o'qli bosimlar bo'yicha hosilalar yig'indisi sifatida qarash mumkin:

$$\frac{dT_c}{dP} = \frac{dT_c}{dP_a} + \frac{dT_c}{dP_b} + \frac{dT_c}{dP_c}$$

dT_c/dP_a , dT_c/dP_b va dT_c/dP_c larni to'g'ridan to'g'ri (3) tenglamadan keltirilib chiqariladigan quyidagi tenglamalar orqali aniqlasak bo'ladi:

$$\frac{dT_c}{dP_a} = -\frac{5T_c}{4} \frac{1}{c} \frac{\partial c}{\partial P_a} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_a} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P_a} \quad (6)$$

$$\frac{dT_c}{dP_b} = -\frac{5T_c}{4} \frac{1}{c} \frac{\partial c}{\partial P_b} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_b} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P_b} \quad (7)$$

$$\frac{dT_c}{dP_c} = -\frac{5T_c}{4} \frac{1}{c} \frac{\partial c}{\partial P_c} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_c} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P_c} \quad (8)$$

(6)-(8) tenglamalarni soddaroq ko'rinishga keltirish uchun ba'zi ishlarni amalga

oshiramiz. Avvalo kristall panjaraning c-o'qini tashkil etuvchisi uchun siqiluvchanlik P va P_c bosimlarda bir xil deb olaylik. (5) tenglama, P_a va P_b bir o'qli bosimlarda kristall panjaraning c-o'qi uzunligi deyarli o'zgarmaydi deb faraz qilgan holda (6)-(8) tenglamalar quyidagicha qayta yozamiz:

$$\frac{dT_c}{dP_a} = -\frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_a} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P_a}, \quad (9)$$

$$\frac{dT_c}{dP_b} = -\frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_b} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P_b}, \quad (10)$$

$$\frac{dT_c}{dP_c} = \frac{5T_c K_c}{4} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_c} + \frac{T_c}{4} \frac{1}{n^*} \frac{\partial n^*}{\partial P_c}. \quad (11)$$

Oxirgi tenglamalar kristall panjaraning turli o'qlari bo'yicha ta'sir etuvchi bosimlar ta'sir etganda kupratli o'ta o'tkazgichlar kritik haroratini o'zgarishini hisoblash imkonini beradi. Bunda dT_c/dP_i kattaliklarni baholashda K_c , $\partial \alpha / \partial P_i$ va $\partial n^* / \partial P_i$ larning qiymatlari ishoralarini bilish kerak bo'ladi.

Bir o'qli bosim ostida kam, optimal va o'ta legirlangan kupratli o'ta o'tkazgichlar uchun kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi va effektiv massasining o'zgarishlarini bashorat qilish bo'yicha natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Kazimir-Kempff yondashuvi asosida bir o'qli bosim ostida kam, optimal va o'ta legirlangan kupratli o'ta o'tkazgichlar uchun kritik harorat, zaryad tashuvchilar zichligi va effektiv massasining o'zgarishlarini bashorat qilish.

Legirlanish darajasi	$\frac{\partial \alpha}{\partial P_a}$	$\frac{\partial \alpha}{\partial P_b}$	$\frac{\partial \alpha}{\partial P_c}$	$\frac{\partial n^*}{\partial P_a}$	$\frac{\partial n^*}{\partial P_b}$	$\frac{\partial n^*}{\partial P_c}$	$\frac{dT_c}{dP_a}$	$\frac{dT_c}{dP_b}$	$\frac{dT_c}{dP_c}$	$\frac{dT_c}{dP}$
Kam	-	-	+	+	+	+	+	+	-	+
Optimal	-	-	+	0	0	0	+	+	-	+
O'ta	-	-	+	-	-	-	+/-	+/-	-	+/-

Turli yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlar uchun tajribalar orqali topilgan dT_c/dP_a , dT_c/dP_b , dT_c/dP_c va dT_c/dP qiymatlar keltirilgan. Ikkala jadvalni solishtirish orqali Kazimir-Kempff modeli asosida bashort qilingan bir o'qli bosimning o'ta o'tkazuvchanlik kritik haroratiga anizotrop ta'sirini tajriba natijalariga muvofiq ekanligini ko'rish mumkin(2-jadval).

2-jadval.

Turli o'ta o'tkazgichlar uchun tajribaviy dT_c/dP_i va dT_c/dP qiymatlari, Hg-12(n-1)n o'ta o'tkazgichlar tetragonal shaklda bo'lgani uchun $dT_c/dP_a = dT_c/dP_b$.

O'ta o'tkazgich	Legirlanish darajasi	dT_c/dP_a , K/GPa	dT_c/dP_b , K/GPa	dT_c/dP_c , K/GPa	dT_c/dP , K/GPa
Hg-12(n-1)n	Optimal	2.3	2.3	-3.6	1
Bi-2212	Optimal	1.6	2.0	-2.9	0.7
Y-123	Optimal	-2.0 ± 0.2	1.9 ± 0.2	-0.3 ± 0.1	-0.3
La-214	Optimal	2.5 ± 0.9	4.9 ± 1.4	-6.8 ± 2.1	0.5

Dissertatsiyaning **“Hg-asosli kupratlarning o'ta o'tkazuvchanlik parametrlariga bosim ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida Hg-12(n-1)n oilasiga mansub yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarning gidrostatik hamda bir o'qli bosim ostidagi o'ta o'tkazuvchanlik xossalari Kazimir-Kempff modeli asosida o'rganilgan. Mazkur bobda bosim ostida kritik haroratning o'zgarishi, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va effektiv massasining bosimga bog'liqligi, shuningdek, kristall panjara parametrlaridagi deformatsion o'zgarishlarning o'ta

o'tkazuvchanlik holatiga ta'siri tahlil qilingan. Natijada Hg-asosli kupratlarda bosim ta'sirida yuzaga keladigan fizik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va kritik haroratning anizotrop o'zgarish mexanizmlari yoritilgan.


Kazimir-Kemp modeliga ko'ra gidrostatik bosim ta'siri kristall panjara o'lchamlari, zaryad tashuvchilar zichligi va effektiv massasi o'zgaradi. O'z navbatida bu kritik haroratni o'zgarishiga sabab bo'ladi. Gidrostatik bosimning ushbu kattaliklarga ta'sirlari orasidagi bog'liqlikni (3) tenglama orqali tasvirlash mumkin. Ma'lumki, barcha Hg-asosli kuprat o'ta o'tkazgichlar uchun ularga a va c o'qlar bo'yicha bir o'qli bosimlar ta'sir ettiriladi (1-rasm). Bu holda kritik haroratning gidrostatik bosim bo'yicha hosilasini bir o'qli bosimlar bo'yicha hosilalar yig'indisi orqali quyigicha ifodalanadi:

$$\frac{dT_c}{dP} = 2 \frac{dT_c}{dP_a} + \frac{dT_c}{dP_c}. \quad (12)$$

Bir o'qli bosim bo'yicha kritik harorat hosilalari dT_c/dP_a va dT_c/dP_c mos ravishda (6) va (8) tenglamalar orqali ifodalanadi. Optimal legirlanishda bosim ostida n^* juda kam o'zgarishi, gidrostatik va c -o'q bo'yicha bosimlarda c -o'q siqiluvchanliklari tengligi, c -o'q bo'yicha bir o'qli bosimda kristall panjara a doimiysini hisobga olmasa ham bo'ladigan darajada juda kichik o'zgarishini inobatga olsak (6) va (8) (yoki (9) va (11) tenglamalar ancha sodda ko'rinishga keladi:

$$\frac{dT_c}{dP_a} = -\frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_a}, \quad (13)$$

$$\frac{dT_c}{dP_c} = \frac{5T_c K_c}{4} - \frac{3T_c}{4} \frac{1}{\alpha} \frac{\partial \alpha}{\partial P_c} \quad (14)$$



1-rasm. Ekvivalent o'tkazuvchan CuO_2 tekisliklarni Kazimir-Kemp modeli doirasida parallel plazma tekisliklar kabi sxematik ravishda tasvirlanishi. a , b , va c kristallografik o'qlarni, P_a va P_c mos ravishda a va c o'qlarga parallel yo'nalgan bir o'qli bosimlarni bildiradi.

(12)-(14) tenglamalardan tetragonal tuzilishdagi optimal legirlangan kupratli o'ta o'tkazgichlarga P_a , P_c va P bosimlar ta'sir etganda α parametrning o'zgarishini xarakterlovchi quyidagi tenglamalarni olamiz:

$$\frac{\partial \alpha}{\partial P_a} = -\frac{4\alpha}{3T_c} \frac{dT_c}{dP_a}, \quad (15)$$

$$\frac{\partial \alpha}{\partial P_c} = \frac{5\alpha K_c}{3} - \frac{4\alpha}{3T_c} \frac{dT_c}{dP_c}, \quad (16)$$

$$\frac{\partial \alpha}{\partial P} = 2 \frac{\partial \alpha}{\partial P_a} + \frac{\partial \alpha}{\partial P_c} \quad (17)$$

Biz (15)-(17) tenglamalar orqali optimal legirlanishga ega bo'lganda zaryad tashuvchilar effektiv massasiga gidrostatik va bir o'qli bosimlar ta'sirlarini qanday bo'lishini nafaqat bashorat qila olamiz balkim hisoblay ham olamiz. Buni quyida ko'rsatamiz.

O'ta o'tkazuvchanlik kritik harorati, zaryad tashuvchilar effektiv massasi va kritik haroratning gidrostatik bosim bo'yicha hosilalarining maksimal qiymatlarini

mavjud adabiyotlardagi tajriba va hisoblash ma'lumotlaridan olgan holda optimal legirlangan Hg-12(n-1)n o'ta o'tkazgichlar zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim ta'siridagi o'zgarishlari uchun hisoblangan natijalar 3-jadvalda keltirilgan. Natijalar barcha Hg-asosli kuprat o'ta o'tkazgichlarda kristall panjaraning *a*-o'q bo'yicha ta'sir etuvchi bir o'qli bosim effektiv massani kamaytirishini ($d\alpha/dP_a < 0$), *c*-o'q bo'yicha ta'sir etuvchi bir o'qli bosim esa effektiv massani oshirishini ($d\alpha/dP_c > 0$) va barcha o'qlar bo'yicha bir vaqtda berilgan bosim effektiv massani ($d\alpha/dP < 0$) kamaytirishini ko'rsatadi. Bu qiymatlar birinchi marta hisoblagan bo'lib bir o'qli bosimning zaryad tashuvchilar effektiv massaning anizotrop ta'sir etishi sababidan kritik haroratning anizotrop o'zgarishini tushuntiradi.

3-jadval.

Hg-12(n-1)n o'ta o'tkazgichlarning parametrlari.

	Hg-1201	Hg-1212	Hg-1223	Hg-1234	Hg-1245
$T_c (P = 0), K$	97	127	135	125	108
α	6.6	2.7	2.1	1.6	1.5
$K_c, 10^{-3} GPa^{-1}$	5.9	6.04	5.62	5.8	5.8
$(dT_c/dP)_{max}, K/GPa$	1.75	1.8	1.71	1.2	1.2
$dT_c/dP_a, K/GPa$	2.92	3	2.85	2	2
$dT_c/dP_c, K/GPa$	-4.07	-4.2	-3.99	-2.8	-2.8
$d\alpha/dP_a, 10^{-3} GPa^{-1}$	-265	-85	-59	-34	-37
$d\alpha/dP_c, 10^{-3} GPa^{-1}$	434	146	102	63	65
$d\alpha/dP, 10^{-3} GPa^{-1}$	-96	-24	-16	-5	-9
$d\alpha/\alpha dP, 10^{-3} GPa^{-1}$	-14.5	-8.9	-7.6	-3.1	-6

(12) tenglamaga analogik ravishda zaryad zichligi uchun quyidagini yoza olamiz:

$$\frac{\partial n^*}{\partial P} = 2 \frac{\partial n^*}{\partial P_a} + \frac{\partial n^*}{\partial P_c} \quad (18)$$

(13) va (14) tenglamalar optimal legirlangan va tetragonal tuzilishga ega o'ta o'tkazgichlar uchun kritik haroratning bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini sodda hisoblash imkonini beradi. Biz quyida $dn^*/dP \approx 0$ munosabatni optimal legirlangan Hg-12(n-1)n namunalari uchun o'rinli deb olamiz. Ammo kam va o'ta legirlangan namunalarda zaryad zichligi bosim ta'sirida o'zgaradi, bu holatlarda (13) va (14) tenglamalar boshqacharoq ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

(17) tenglamada zaryad tashuvchilar effektiv massasining gidrostatik va bir o'qli bosimlar bo'yicha o'zgarishlari orasidagi bog'liqlik mavjud. Hg-12(n-1)n o'ta o'tkazgichlarda CuO₂ tekisliklar soni oshishi yoki kristall panjara doimiysi *c* ortishi bilan zaryad tashuvchilar effektiv massasi kamayadi. Shunday kelib chiqib effektiv massa va kristall panjara doimiylari orasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\alpha = \beta_1 a - \beta_2 c \quad (19)$$

bunda β_1 va β_2 musbat koeffitsiyentlar mos ravishda kristall panjaraning *a* va *c* doimiylari va zaryad tashuvchilar effektiv massasi orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi ($\frac{\beta_1}{\beta_2} > \frac{c}{a}$). (4) va (17) tenglamalardan effektiv massaning bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini aniqlaymiz:

$$\frac{\partial \alpha}{\partial P_a} = \beta_1 \frac{\partial a}{\partial P_a} = -\beta_1 a K_a, \quad (20)$$

$$\frac{\partial \alpha}{\partial P_c} = -\beta_2 \frac{\partial c}{\partial P_c} = \beta_2 c K_c \quad (21)$$

va nihoyat, (13), (14), (20) va (21) tenglamalardan quyidagilarni olamiz:

$$\frac{dT_c}{dP_a} = \frac{3\beta_1 a K_a T_c}{4\alpha}, \quad (22)$$

$$\frac{dT_c}{dP_c} = \frac{5(\alpha - 3\beta_2 c) T_c K_c}{4\alpha} \quad (23)$$

4-jadval.

(19)-(21) tenglamalar asosida Hg-12(n – 1)n o‘ta o‘tkazgichlar uchun β_1 , β_2 va $d\alpha/dP_i$ ning hisoblangan qiymatlari.

	Hg-1201	Hg-1212	Hg-1223	Hg-1234	Hg-1245
T_c , K	97	127	135	125	111
a , Å	3.9	3.9	3.9	3.9	3.9
c , Å	9.5	12.7	15.8	19	22.1
K_a , 10^{-3} GPa $^{-1}$	4.26	2.94	2.57	2.42	2.28
K_c , 10^{-3} GPa $^{-1}$	5.83	6.04	5.62	5.67	5.72
α	6.6	2.7	2.1	1.6	1.5
β_1 , Å $^{-1}$	13.1	6.2	5.2	4.2	4.7
β_2 , Å $^{-1}$	1.4	0.32	0.18	0.14	0.12
$\partial\alpha/\partial P_a$, 10^{-3} GPa $^{-1}$	-217.6	-71	-52.1	-39.6	-41.8
$\partial\alpha/\partial P_c$, 10^{-3} GPa $^{-1}$	77.5	24.6	16	15.1	15.2
$\partial\alpha/\partial P$, 10^{-3} GPa $^{-1}$	-357.7	-117.4	-88.2	-64.1	-68.4

(22) va (23) tenglamalar anchayin sodda ko‘rinishga ega bo‘lib ular orqali kritik haroratning bir o‘qli bosim bo‘yicha hosilalarini hisoblashda faqatgina ikkita noma’lum β_1 va β_2 koeffitsiyentlar mavjud. Yuqorida bayon etilgan modelimizga tayangan holda Hg-12(n – 1)n o‘ta o‘tkazgichlar uchun eksperimental ma’lumotlarni (19)-(21) tenglamalarga qo‘yish orqali β_1 , β_2 va $d\alpha/dP_i$ qiymatlarni hisoblandi (4-jadval). Zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o‘qli bosim bo‘yicha hosilalari (15) va (16) tenglamalar asosida hisoblangan qiymatlari (20) va (21) tenglamalarni qo‘llashdan kelib chiqadigan natijalarga yaqin. Bu (19) tenglama ko‘rsatilgan kristall va elektron strukturalarni ifodalovchi parametrlar, ya’ni kristall panjara doimiylari va zaryad tashuvchilar effektiv massasi bir-biriga bog‘liqligini Kazimir-Kempff modeli doirasida tushuntirish mumkinligini ko‘rsatadi.

5-jadval.

Hg-12(n – 1)n o‘ta o‘tkazgichlar kritik harorati bir o‘qli va gidrostatik bosim hosilalarining Kazimir-Kempff modeli (KKM) orqali hisoblangan va boshqa adabiyotlarda (BA) hisoblangan yoki tajriba orqali topilgan qiymatlari, ^a Hardy F. *et al.*, Phys. Rev. Lett. 105 (2010) 167002.; ^b Klehe A.K. *et al.*, Physica C. 223 (1994) 313.; ^c L. Gao *et al.*, Phys. Rev. B. 50 (1994) 4260.; ^d Cao Y. *et al.*, APS March Meeting Abstracts (1996) M12–05.

	dT_c/dP_a , K/GPa		dT_c/dP_c , K/GPa		dT_c/dP , K/GPa	
	KKM	BA	KKM	BA	KKM	BA
Hg-1201	2.4	2.4 ^a	-3.6	-3.6 ^a	1.2	1.2 ^a
Hg-1212	2.5		-3.3		1.7	1.7 ^b
Hg-1223	2.5	2.5 ^a	-3	-3 ^a	2	2 ^{a,c}
Hg-1234	2.3		-3.4		1.2	1.2 ^d
Hg-1245	2.3		-3.4		1.2	1.2 ^d

4-jadval ma’lumotlari asosida, (22) va (23) tenglamalardan foydalangan holda hisoblangan natijalar optimal legirlangan Hg-1201 o‘ta o‘tkazgich uchun F.Hardy va boshq. tomonidan aniqlangan $dT_c/dP_a = +2.4$ K/GPa, $dT_c/dP_c = -3.6$ K/GPa

va tajriba orqali topilgan $dT_c/dP = +1.2$ K/GPa, Hg-1223 o'ta o'tkazgich uchun aniqlangan $dT_c/dP_a = +2.5$ K/GPa va $dT_c/dP_c = -3$ K/GPa qiymatlarga muvofiq keladi. Qolgan Hg-asosli o'ta o'tkazgichlar uchun hisoblagan natijalar ham Hg-12($n - 1$) n o'ta o'tkazgichlar uchun adabiyotlarda ta'kidlangan $dT_c/dP_a \equiv 2.5 \pm 0.5$ K/GPa va $dT_c/dP_c \equiv -3.5 \pm 1$ K/GPa qiymatlarga, shuningdek, gidrostatik bosimning kritik haroratga hisoblangan ta'siri ham tajriba natijalarga mos keladi (5-jadval).

Dissertatsiyaning **“Gidrostatik va bir o'qli bosim ostidagi Y-asosli kupratlarning xossalari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Y-asosli kupratli yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlar -YBa₂Cu₃O_{7- δ} (Y-123) va YBa₂Cu₄O₈ (Y-124) birikmalarining gidrostatik hamda bir o'qli bosim ta'siri ostidagi fizik xossalari Kazimir–Kempff modeli doirasida tadqiq etilgan. Mazkur bobda bosim ta'sirida ushbu o'ta o'tkazgichlarning kritik harorati, zaryad tashuvchilar zichligi, effektiv massasi va kristall panjara parametrlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, Y-123 va Y-124 kupratlarida bosimning turli kristallografik yo'nalishlar bo'yicha o'ta o'tkazuvchanlik parametrlariga ko'rsatadigan anizotrop ta'siri asoslab berilgan.

Kazimir–Kempff modeli doirasida optimal legirlangan Y-123 o'ta o'tkazgich uchun kritik haroratning bir o'qli bosim bo'yicha hosilalarini hisoblashda, avvalo, mazkur birikmaning kristall tuzilishi, zaryad tashuvchilar zichligi, effektiv massa qiymatlari, London singish chuqurligi hamda bosim ta'sirida panjara parametrlarining anizotrop o'zgarishiga oid nazariy va tajribaviy ma'lumotlarga tayaniladi:

1. Optimal legirlangan Y-123 o'ta o'tkazgichlar ustidagi dastlabki tajribalardan ma'lumki, CuO₂ tekislikdagi o'ta o'tkazuvchan tok tashuvchilar konsentratsiyasi 0.19 kovak/CuO₂ yoki 0.205 C/m^2 ga teng (P.L. Alireza et al., Phys. Rev. B 95 (2017) 100505) va u bosim ostida kichik qiymatlarga o'zgaradi. Xususan, R.P. Gupta va M. Gupta Y-123 o'ta o'tkazgich uchun ostida zaryad tashuvchilarning bir o'qli bosim ostida o'zgarishlari uchun $\partial n^*/\partial P_a = 0.0013$, $\partial n^*/\partial P_b = -0.0009$ va $\partial n^*/\partial P_c = 0.0021$ (kovak/CuO₂) · GPa va gidrostatik bosim uchun $\partial n^*/\partial P = 0.0025$ (kovak/CuO₂) · GPa qiymatlarni hisoblashdi (R.P. Gupta, M. Gupta, Phys. Rev. B 50 (1994) 9615–9618). Garchi bu natijalar $P = 0.578$ GPa gidrostatik bosim uchun olingan bo'lsa-da ularni namunaga gidrostatik/bir o'qli bosimning dastlabki bir necha GPa qiymatlari uchun o'rinli deb qaraladi.

2. Biz hisoblashlarimizda $\alpha = 1.5$ dan foydalanamiz (S.E. Sebastian et al., Proc. Natl. Acad. Sci. 107 (2010) 6175–6179). Bundan tashqari bizga $\partial \alpha / \partial P_i$ qiymatlar ham kerak bo'ladi. Afsuski, Y-123 o'ta o'tkazgich zaryad tashuvchilarning effektiv massasi bir o'qli bosim ta'siri ostida qanday o'zgarishi haqida tajriba natijalari va nazariy hisoblashlar mavjud emas. Ammo R.P. Gupta va M. Gupta hisoblagan natijalarga tayangan holda optimal legirlangan Y-123 o'ta o'tkazgich zaryad tashuvchilar effektiv massasi va koeffitsiyent uchun quyidagicha xulosalarga kelish mumkin: kristall panjaraning a -o'qi bo'yicha yo'nalgan bir o'qli bosim kritik haroratni kamaytirishi, $\partial n^*/\partial P_a > 0$ munosabat va (9) tenglamaga ko'ra $\partial \alpha / \partial P_a > 0$, b -o'q bo'yicha yo'nalgan bir o'qli bosim kritik haroratni oshirishi va $\partial n^*/\partial P_b < 0$ ekanligidan (10) tenglama $\partial \alpha / \partial P_b < 0$ bo'lishini anglatadi. Xuddi shu uslubdagi tahlil orqali $\partial \alpha / \partial P_c > 0$ ekanligini topamiz. Bunga qo'shimcha

